L

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Toshkent davlat agrar universiteti
O'quv ishlari bo'yicha prorektori
prof. __________S.Boboyev
2025 yil "04" 07

Ro'yxatga olindi: № BD-61010100-1.13
2025 yil "04" 07

# "JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR" FANINING O'QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 1 000 000 | - Xizmatlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 1 010 000 | - Xizmat ko'rsatish sohasi |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 61010100 | - Turizm va mehmondo'stlik |

**Toshkent– 2025**

CamScanner yordamida skanerlangan

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>JIXIM1406</td><td>O'quv yili<br>2025-2026</td><td>Semestr<br>4</td><td colspan="2">Kreditlar<br>6</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta'lim tili<br>O'zbek</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>6</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta'lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR</td><td>72</td><td>108</td><td>180</td></tr>
</table>

**2.**

**I. Fanning mazmuni**

**Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar** fani iqtisodiyotning xalqaro darajadagi rivojlanishini, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni, ularning shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan bo'lib, iqtisodiy ta'lim yo'nalishlar bo'yicha mutaxassis tayyorlashda asosiy umumkasbiy fanlardan biri bo'lib hisoblanadi

**Fanning maqsadi** – talabalarda jahon iqtisodiyoti haqida nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat bo'lib, u xalqaro mehnat taqsimoti tizimida faoliyat yurituvchi milliy xo'jaliklar yig'indisi sifatida qaraladi. Shuningdek, bu fan jahon iqtisodiyotining rivojlanish qonuniyatlari va tendensiyalarini o'rganishni, xalqaro iqtisodiy jarayonlarning hozirgi holati va rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi xo'jalik subyektlarining xatti-harakatlari va ularning zamonaviy sharoitdagi o'zaro aloqalarini baholash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

**Fanning vazifasi** – Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning nazariy asoslarini o'rgatish; Xalqaro savdo va moliyaviy munosabatlarning mexanizmlarini tushuntirish; Turli mamlakatlarning tashqi iqtisodiy siyosatini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish; Talabalarga xalqaro tashkilotlar va ularning funksiyalarini tushuntirish; Jahon iqtisodiyotidagi integratsiya jarayonlarini o'rganish; Global iqtisodiy muammolar (energiya xavfsizligi, ekologik muammolar, oziq-ovqat xavfsizligi va boshqalar)ni tahlil qilishga o'rgatish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Jahon xo'jaligining rivojlanish tendensiyalari, muammolari, ko'rsatkichlari va resurs salohiyati.** Jahon xo'jaligi tushunchasi va mohiyati. Jahon iqtisodiyoti talqinidagi asosiy yondashuvlar. Jahon xo'jaligining shakllanish bosqichlari. Jahon xo'jaligi dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi tendensiyalari. Iqtisodiy hayotning baynalminallashuvining asosiy xususiyatlari va ko'rinishlari. Globallashuv oqibatlari va ziddiyatlari. Zamonaviy jahon xo'jaligining



CamScanner yordamida skanerlangan

mikro va makro iqtisodiy darajadagi sub'ektlari. Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha rivojlanish differentsiyasi. Milliy va jahon xo'jaligining iqtisodiy o'sishi, iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari.

**2-mavzu. Dunyo mamlakatlari tipologoyasi – jahon iqtisodiyotida rivojlangan mamlakatlar.** Jahon iqtisodiyotida rivojlangan mamlakatlar. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarining asosiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari. "Katta Yettilik" mamlakatlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. Rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy modellari. AQShning zamonaviy jahon iqtisodiyotidagi o'rni.

**3-mavzu. Dunyo mamlakatlari tipologoyasi – jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlar.** Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining umumiy belgilari va xususiyatlari.Rivojlanayotgan mamlakatlarning notekis iqtisodiy rivojlanishi va differensiasiyasi. Jahon iqtisodiyotida Hindiston. Braziliya zamonaviy iqtisodiyoti. Xitoy iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari.

**4-mavzu. Dunyo mamlakatlari tipologoyasi – jahon iqtisodiyotida bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi mamlakatlar. O'zbekiston jahon iqtisodiyoti tizimida.** Iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan mamlakatlar guruhining shakllanishi. O'tish davrining tamoyillari, maqsadlari, shart-sharoitlari va vazifalari.Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari iqtisodiyoti.

**5-mavzu. Xalqaro mehnat taqsimoti jahon iqtisodiyotini shakllanishining moddiy asosi sifatida.** Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) Jahon Iqtisodiyotining asosi sifatida. Xalqaro mehnat taqsimoti shakllari. Xalqaro mehnat taqsimoti da mamlakatning ishtirokini belgilovchi omillar. Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va shakllari.

**6-mavzu. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya.** Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mohiyati va xususiyatlari. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar va milliy iqtisodiy munosabatlar o'rtasidagi farq. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar ob'ektlari va sub'ektlari. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar shakllari.

**7-mavzu. Jahon bozori va xalqaro savdo. Mamlakat to'lov balansi.** Jahon bozorining mohiyati va evolyusiyasi.Jahon bozorining rivojlanish bosqichlari. Tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati. Jahon bozori va uning kon'yunkturasi. Jahon bozorining tuzilishi. Jahon tovar bozorlari kon'yunkturasi, uning ko'rsatkichlari va hosil qiluvchi omillar.

**8-mavzu. Tashqi savdo siyosati va uni tartibga solish vositalari.** Tashqi savdo siyosatining mohiyati; Tashqi savdo siyosatining maqsadlari; Tashqi savdo siyosatining asosiy turlari; Tashqi savdoni tartibga solish vositalari; Xalqaro tashkilotlar va tashqi savdo; O'zbekistonning tashqi



CamScanner yordamida skanerlangan

savdo siyosati

**9-mavzu. Xalqaro kapital migratsiyasi. Xalqaro kredit munosabatlari. Transmilliy korporatsiyalar.**
Xalqaro kapital migratsiyasining mohiyati; Xalqaro kapital migratsiyasining turlari; Xalqaro kredit munosabatlari; Transmilliy korporatsiyalar (TMK); Kapital migratsiyasi va kredit munosabatlarining rivojlanayotgan mamlakatlarga ta'siri

**10- mavzu. Xalqaro mehnat migratsiyasi.** Xalqaro mehnat migratsiyasining mohiyati. Mehnat migratsiyasining asosiy sabablari. Mehnat migratsiyasining turlari. Mehnat migratsiyasining ijobiy va salbiy oqibatlari. Mehnat migrantlarining huquqiy himoyasi. O'zbekiston va mehnat migratsiyasi. Mehnat migratsiyasini tartibga solish yo'llari. Migrantlarning huquqiy va ijtimoiy muhofazasi.

**11- mavzu. Xalqaro valyuta tizimi va valyuta kursi. Moliya va valyuta bozori.** Xalqaro valyuta tizimining mohiyati va bosqichlari; Valyuta kursi tushunchasi va turlari; Moliya bozori tushunchasi; Valyuta bozori (Forex); Markaziy bankning valyuta kursiga ta'siri; Xalqaro tajriba va O'zbekiston holati

**12- mavzu. Erkin iqtisodiy hududlar.** Erkin iqtisodiy hududlarning tushunchasi; EIHlarning asosiy turlari; EIHlar faoliyatining asosiy xususiyatlari; EIHlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri; Jahon tajribasi: EIHlar rivojlanishi; O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlar; EIHlarning muammolari va yutuqlari.

**III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Jahon xo'jaligining rivojlanish tendensiyalari, muammolari, ko'rsatkichlari va resurs salohiyati.
2. Dunyo mamlakatlari tipologoyasi – jahon iqtisodiyotida rivojlangan mamlakatlar.
3. Dunyo mamlakatlari tipologoyasi – jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlar.
4. Dunyo mamlakatlari tipologoyasi – jahon iqtisodiyotida bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi mamlakatlar. O'zbekiston jahon iqtisodiyoti tizimida.
5. Xalqaro mehnat taqsimoti jahon iqtisodiyotini shakllanishining moddiy asosi sifatida.
6. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya.
7. Jahon bozori va xalqaro savdo. Mamlakat to'lov balansi.
8. Tashqi savdo siyosati va uni tartibga solish vositalari
9. Xalqaro kapital migratsiyasi. Xalqaro kredit munosabatlari. Transmilliy korporatsiyalar.
10. Xalqaro mehnat migratsiyasi.
11. Xalqaro valyuta tizimi va valyuta kursi. Moliya va valyuta bozori.



CamScanner yordamida skanerlangan

12. Erkin iqtisodiy hududlar

*Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhda bir professor – o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.*

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:*

1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanining maqsad va vazifalari.
2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar ko'rinishlari va xususiyatlari.
3. Xalqaro mehnat taqsimoti.
4. Ishlab chiqarishning Xalqaro ixtisoslashuvi va kooperasiyalashuvi.
5. Xalqaro savdo nazariyalari.
6. Xalqaro savdo tarkibi va rivojlanish bosqichlari.
7. Xalqaro iqtisodiy integrasiya.
8. Xalqaro kapital migrasiyasi.
9. Tranmilliy korporasiyalarning Jahon iqtisodiyotidagi roli.
10. Xalqaro valyuta-moliya munosabatlari.
11. Xalqaro kredit munosabatlari.
12. Xalqaro ishchi kuchi migrasiyasi.
13. Rivojlangan mamlakatlar - Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida.
14. Rivojlanayotgan mamlakatlarning Xalqaro iqtisodiy munosabatlari.
15. Yangi industrial mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlari.
16. Milliy iqtisodiyotni Markaziy Osiyo mustaqil davlatlari transformasiyasi.
17. Jahon xo'jaligining globallashuvi yo'nalishlari va ziddiyatlari.
18. Jahon xo'jaligining globallashuv jarayonlarida O'zbekistonning ishtiroki.
19. Jahon iqtisodiyotini tartibga solishda Xalqaro tashkilotlarning o'rni.
20. Jahon savdo tashkiloti va Xalqaro savdo.
21. O'zbekiston Respublikasida Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish bosqichlari va omillari.
22. O'zbekiston tashqi savdosining tarkibi va rivojlanish omillari.
23. O'zbekiston iqtisodiyotining tarkibi va Xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi o'rni.
24. O'zbekiston va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik aloqalari.

*Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.*

3 **V.Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiya:**

**Talaba bilishi kerak:**

- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanida amal



CamScanner yordamida skanerlangan

| | |
|---|---|
| | qiladigan asosiy tushunchalar, kategoriyalarni, amal qilish mexanizmining mazmuni;<br>- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar ko'rinishlari va xususiyatlari;<br>- xalqaro mehnat taqsimotining mohiyati, rivojlanishining o'ziga xos tomonlari va ta'sir qiluvchi omillari;<br>- tashqi savdo siyosatining modellari, Xalqaro savdoni moliyalashtirish usullari, erkin savdo va proteksionizm siyosati haqida tasavvurga ega bo'lishi;<br>✓ Xalqaro kapital harakatining faollashuv sabablarini, uning asosiy harakatlanish shakllarini;<br>✓ dunyo valyuta tizimining asosini tashkil etuvchi unsurlarni, valyuta tizimlarining evolyusion taraqqiyotini;<br>✓ Xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini boshqarishning asosiy yo'nalishlari ***haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)***<br>➢ erkin iqtisodiy hududlarning (EIX) mohiyati va tashkil qilinishining sabablari, asosiy ko'rinishlarini izohlab berish;<br>➢ Xalqaro ishchi kuchi migrasiyasining sabablarini, uning rivojlanish bosqichlari, muammolarini ochib berish;<br>➢ transmilliy korporasiyalarning (TMK) ko'rinishlari va ularning vujudga kelishi sabablari, ular faoliyatining asosiy xususiyatlarini yoritib berish;<br>➢ Xalqaro iqtisodiy integrasiyaning kelib chiqish sabablari, rivojlanish bosqichlari, bugungi kundagi modellari va iqtisodiy samaradorlik muammolarini tushunish;<br>➢ dunyo mamlakatlarining iqtisodiyotini guruhlar kesimida o'rganish va ularning iqtisodiy taraqqiyot muammolarini tahlil qilish va bilishi va ulardan foydalana olishi ko`nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka) |
| 4. | **VI.Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>- ma'ruzalar;<br>- interfaol keys – stadilar;<br>- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol javoblar);<br>- guruhlarda ishlash;<br>- taqdimotlarni qilish;<br>- individual loyihalar;<br>- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish,i yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1.Alimov A., E.Maxmudov., N.Xaydarov. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro |



CamScanner yordamida skanerlangan

| | |
|---|---|
| | iqtisodiy munosobatlar. Darslik 2023. – Toshkent: Zilol buloq nashriyoti. 432b.<br>2. Исмаилова Н.С., Шагазатов У.У. Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар. Дарслик. –Т.: IQTISODIYOT, 2019. – 244 б.<br>3. A.V. Vaxabov, D.A.Tadjibayeva, Sh.X.Xajibakiyev. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosobatlar: darslik. – Toshkent: Baktria press, 2015. – 584 b.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 56 b.<br>2.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 485 b.<br>3. Дерен, В. И. Мировая экономика и международные экономические отношения : учебник и практикум для вузов / В. И. Дерен. — 3-е изд., испр. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2025. — 617 с.<br>4. Мировая экономика и международные экономические отношения в схемах и таблицах. учебник для вузов / Е. А. Худоренко, Н. Е. Христолюбова. — 3-е изд., испр. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2025. — 332 с.<br>5. Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник и практикум для вузов / И. А. Максимцев, П. Д. Шимко, В. Г. Шубаева ; Москва : Издательство Юрайт, 2025. — 431 с.<br>6. World Economy and International Economic Relations: Training manual. - Edited by Y. Kozak, T. Shengelia – Tbilisi: PH «Universal», 2016 – 223 p.<br>7. Textbook: P. Krugman, M. Obstfeld and M. Melitz, International Economics: Theory and Policy (2018). (Old editions are also O.K.)<br>8.БулатовА.С., ЛивенцевН.Н. Мировая экономика и международные экономические отношения: Учебник. - Изд. собновл. - М.: Магистр: НИЦ ИНФРА-М, 2013. - 654 с.<br>9. Мировая экономика. Экономика стран и регионов: учебник для академического бакалавриата /В.П.Колесов [и др.]– М.Изд-во Юрайт, 2016. – 519 с.<br>**Axborot manbaalari**<br>1.www.stat.uz<br>2.www.lex.uz<br>3. https://www.imemo.ru/en/publications/periodical/meimo<br>4. https://www.worldbank.org/ext/en/home<br>5. https://www.imf.org/en/Home<br>6. www.unilibrary.uz |
| **7.** | Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat agrar universiteti Ilmiy Kengashining 2025 yil "04" 07 dagi 13 -sonli bayonnomasi |



CamScanner yordamida skanerlangan

| | |
|---|---|
| | bilan ma'qullangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun ma'sul:**<br>M.X. Saidov - TDAU "Agroiqtisodiyot" kafedrasi i.f.d. professori<br>D.O. Pirmatova– TDAU "Agroiqtisodiyot" kafedrasi assistant o'qituvchisi |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>Narinbaeva.G.K–TDAU "Biznesni boshqarish" kafedrasi dotsenti.<br>Y.E.Aliyev– TDIU "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi professori, i.f.d |



CamScanner yordamida skanerlangan

**MAZKUR O'QUV DASTUR DUNYONING E'TIROF ETILGAN XALQARO QS VA THE REYTINGLARIDA NUFUZLI TOP-300 TALIKKA KIRGAN QUYIDAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING TA'LIM DASTURLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQILGAN**

| № | OTM nomi | QS | THE | O'quv dasturidagi mavzu nomi | Kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar | Havolalar: |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | The London School of Economics and Political Science (England) | 5 | 50 | 2-3-mavzular: Rivojlanayotgan, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti mavzulari moslashtirilgan. | 14. Development Under Communism: Russia and Eastern Europe. 15. New Economic Powers: China and India. 16. Africa: Historical Legacies, Geography and Grow | https://www.lse.ac.uk/study-at-lse/uolip/Assets/documents/EC2199-The-world-economy-from-the-industrial-revolution-to-the-present.pdf |
| 2 | **Московский государственный университет имени В.М.Ломоносова (Россия)** | **94** | **107** | Barcha mavzular moslashtirilgan | | **https://mse.msu.ru/wp-content/uploads/2020/02/%D0%9C%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D1%8F-%D1%8D%D0%BA%D0%BE%D0%BD%D0%BE%D0%BC%D0%B8%D0%BA%D0%B0-%D0%B8-%D0%BC%D0%B5%D0%B6%D0%B4%D1%83%D0%BD%D0%B0%D1%80%D0%BE%D0%B4%D0%BD%D1%8B%D0%B5-%D1%8D%D0%BA%D0%BE%D0%BD%D0%BE%D0%BC%D0%B8%D1%87%D0%B5%D1%81%D0%BA%D0%B8%D0%B5-%D0%BE%D1%82%D0%BD%D0%BE%D1%88%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D1%8F.doc** <br><br> **https://www.econ.msu.ru/ext/lib/Category/x64/xe7/25831/file/%D0%BC%D0%B8%D1%80%D1%8D%D0%BA.pdf** |
| 3 | **Seoul National University (South Korea)** | **31** | **62** | **7-mavzu.** Jahon bozori va xalqaro savdo. Mamlakat to'lov balansi. **8-mavzu.** Tashqi savdo siyosati va | Trade Policy Instruments: Tariff, Non Tariff; National Income | **https://eugsis.snu.ac.kr/wp-content/uploads/sites/70/2024/12/22-spring-international-economic-relations.pdf** |



CamScanner yordamida skanerlangan

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | uni tartibga solish vositalari. | Accounting and the Balance of Payments | |



CamScanner yordamida skanerlangan